**DOI**

***Xaldarchayeva G.S.***
***Toshkent viloyati Chirchik davlat pedagogika universiteti, Turizm fakulteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi***
***Nuritdinova Z.G.***
***Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasi Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi-19/1 guruh 4-bosqich talabasi***

# O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDA O‘Z O‘RNINI TOPISHGA INTILISHLARI VA ULARNING NATIJALARI BUGUNGI YUTUQLAR MISOLIDA

***Annotatsiya.*** *Bu maqolada “Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir” — degan edi J. Santayana. Demak, bu jamiyatning mo‘jazgina duru gavharini yaratuvchi ikkinchi ijodkor sanalgan ona aql-zakovatli ayol bo‘lsa, buni haqiqiy shoh asarga aylanadi, deb yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *5-muhim tashabbus, gender tenglik, imtiyozlar ko'lami, ayollar forumi, statistika.*

***Khaldarchayeva G.S.***
***senior lecturer***
***Department of Interfaculty Foreign Languages***
***Faculty of Tourism***
***Chirchik State Pedagogical University***
***Tashkent Region***
***Nuritdinova Z.G.***
***4th grade student Chirchik State Pedagogical University***
***Primary Education and Sports Educational Work - 19/1 group***
***Department of Primary Education***
***Tashkent Region***

# TRYING TO FIND THEIR PLACE IN SOCIETY OF WOMEN AND GIRLS IN UZBEKISTAN AND THEIR RESULTS AS AN EXAMPLE OF TODAY'S ACHIEVEMENTS

***Abstract.*** *J. Santayana said in this article, "The family is one of the masterpieces of nature." So, it is explained that if the mother, who is considered the second creator who creates the wonderful gem of this society, is an intelligent woman, it will become a real masterpiece.*

***Key words:*** *The fifth important initiative, gender equality, scope of benefits, women's forum, statistics.*



https://wordlyknowledge.uz

O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishlari va ularning natijalari bugungi yutuqlar misolida qadam baqadam nazar solsak. Dastavval Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning mart oyida ilgari surilgan„5-MUHIM TASHABBUS" negizida yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish, kitobxonlikni keng omma orasida targ'ib qilish va albatta xotin-qizlar bandligini ta'minlash butun xalqimiz tomonidan katta qiziqish va iliqlik bilan kutib olindi. Shundan e'tiboran bu jabhaga har doimgidanda ko'proq e'tibor qaratilmoqda, katta investitsiyalar jalb qilinmoqda.

Buning yorqin dalili sifatida shu yilning o'zida 6 nafar ayol hokimlikka saylanib, ular Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida o'z ish faoliyatlarini boshladilar. Shu davrdan boshlab har bir hududda ayol hokimlar saylanib, ularning sonini 14 nafarga yetkazish haqidagi Prezidentimizning fikrlari, albatta, har bir ayol uchun muvaffaqqiyatlarga undovchi bir turtki bo'lishi, shubhasiz. Yana shuni ham faxr bilan ta'kidlab o'tish joizki, aynan shu yildan e'tiboran O'zbekiston tarixida ilk bora ayol kishi soliq inspeksiyasiga rahbar etib tayinlandi. Mustaqillikdan so'ng ilk bor mamlakatimizda shu yil ayol kishi elchi vazifasiga tayinlandi va albatta 2019-yildan e'tiboran Narbaeva Tanzila Kamalovna — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi etib belgilandi. Buning hammasi mamlakatimizda olib borilayotgan "Gender tenglik" islohotlarining natijasidir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tmishimiz qora sahifalarining ayrim qismlari aynan ayollarning bilim olishlari va jamiyatda yetuk kadr sifatida shakllanishiga to'siq qo'yilishi bilan yozilgan. Ayolni nafaqat ona sifatida, balki bilimli va ziyoli bo'lsa, rahbar sifatida ham qabul qila olsak, biz intilayotgan taraqqiyot ham biz tomon hamda bir qadam bo'sa-da yuksaklikka odimlaydi. Buyuk va ko'hna tariximizda bunga misollar yetarlicha topiladi (To'maris, Nodirabegim va boshqalar) va bu haqiqatning dalili o'laroq bugungi kunda ham jahon tajribasi misolida ko'rish mumkin. Misol tariqasida Finlandiya mamlakatining boshqaruv tizimini o'rgansak, 2019-yildan e'tiboran Bosh vazir lavozimiga ayol kishi tayinlandi va u hozircha, dunyodagi eng yosh Bosh vazir hisoblanadi. Finlandiyada Adliya vaziri, Iqtisod vaziri, Ta'lim vaziri, Ichki ishlar vaziri vazifalarini ham aynan ayollar boshqarishadi. Bundan tashqari Yevropada ayollarga saylovlarda qatnashish huquqini bergan birinchi davlat ham Finlandiya hisoblanadi. 2019 yilda bu mamlakat — Jahondagi eng baxtli yurt, deb e'tirof etilgan.

Biz har doim: "Mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo'lida" — deb baralla aytamiz. Chunki haqiqatan ham Yurtning ertasi — yoshlardir. Demak, biz aytayotgan ertamiz egalarini onalarimiz tarbiyalaydi, voyaga yetkazadi. Agar Ona aql-zakovatli, bilimli, kasb-korli bo'lmasa, qanday qilib o'zida bo'lmagan malaka va ko'nikmalarni farzandiga singdira oladi. Axir bola ilk saboqlarni onadan oladi, hayotdagi ilk tasavvurlari ongida tug'ilgan savolarga ona tomonidan aytilgan



https://wordlyknowledge.uz

jovoblar ta’sirida shakllanadi. Qachonki bola ona timsolida o‘z ideal insonini ko‘ra olsagina, u tanlagan yo‘lidan muvaffaqiyatlari sari ildam qadam tashlaydi.

Prezidentimiz tomonidan chekka, olis hududlarda yashovchi, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarning qiz farzandlari uchun alohida kvotalar tayinlanishi,bakalavr ta'limdagi tahsil olayotgan xotin-qizlarimiz uchun foizsiz ta'lim kvotalari, magisturatura ta'limi bo'lsa ayollarimiz uchun 100% grant ta'yinlanishi bilan nafaqat shaharlarda, balki olis hududlarimizda ham ziyoli xotin-qizlarimiz safining yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kundagi yangilayotgan konstitutsiyamizda ham ayollarimizning xuquqlari, gender tengligi masalalari ham aniq belgilanib qo'yildi. Yangi konstitutsiya ko'ra yosh farzandlari bor ayollarni yoki xomiladorli sabab ishga olinishidagi to'siqlar yoki bo'shatilishiga sabab bo'lishi javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilmoqda.

Bu ishlarning natijasi o'laroq 2022-yilning 1-yanvar holatidagi statistik malumotlarni keltirib o'tsak O‘zbekiston Respublikasida ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 36 472 tani tashkil etgan.

Ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 177 taga oshgan.

Bu ma'lumotlar shuni anglaymizki, hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan “Ayol kishining o‘qishi shart emas, o‘qib shahar olib berarmidi?” kabi “aqida”lar asta sekinlik bilan bizning xalqimizga begonalashib bormoqda. Zeroki insonning jamiyatdagi o‘rni uning jinsi bilan belgilanmaydi, aksincha bilimi, mehnati, iqtidori bilan o‘lchanadi.

Bu borada “Bu sharqona nozik san’at bo‘ladimi yoki qat’iy aniq fanlarmi o‘zbek ayollari barcha sohalarda ilgarilab bordi, ammo soyada qolib ketdi. Ularning gavdalarini tik tutishlari va har jabhada o‘z qobiliyatlarini qo‘rquv va cheklovlarsiz ko‘rsatish vaqti yetdi!” — degan edi Saida Mirziyoyeva, Dubaydagi butunjahon ayollar forumida so‘zlagan ma’ruzasida. Ular har qachon bor kuch-g‘ayrati bilan har bir sohada mehnat qilishgan. Ammo bugungi etibor va imkoniyatlarni orzu ham qilishmagan. Hatto ikkinchi jahon urushi davrlarida ham juda ko‘plab ayollar o‘z oilalaridan ayrilishgan bo‘lsa-da, tushkunlikka tushmay farzandlarini ma’naviyatli qilib ulg‘aytirishgan, kecha-kunduz dalada mehnat qilib, front uchun juda katta yordam ko‘rsatishgan. Erkaklar bilan yelkama yelka turib, frontda dushmanga qarshi jang qilgan ayollarimiz ham kam emas.

Ha, ayollar har jabhada jamiyat gultojidir!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2018 yil 18 oktyabr.
2. “Glabal womens forum”. Dubay. 2020 yil 16-17 fevral. Saida Mirziyoyeva ma’ruzasi.
3.O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi malumotlari.



https://wordlyknowledge.uz